

## IX. KICHIK TADBIRKORLIK


2023 yil 1 yanvar holatiga ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) ning soni 32155 tani tashkil qildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,9 foizga o'sgan.

2022 yil yanvar-dekabr oylarida 4413 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 68,8 foizni tashkil etdi.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo (33,2 foiz), sanoat (14,8 foiz), qurilish (5,9 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (12,4 foiz), yashash va ovqatlanish (6,5 foiz) va boshqa tarmoqlarda tashkil etilgan.

### 2022 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi

(foizda)




**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar  
va mikrofirmalar, birlikda**

	<i>yanvar-dekabr 2021 yil</i>	<i>yanvar-dekabr 2022 yil</i>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>6418</b>	<b>4413</b>
Buxoro sh.	1396	1059
Kogon sh.	316	158
<i>tumanlar</i>		
Buxoro	510	354
Vobkent	393	265
Jondor	491	371
Kogon	367	387
Olot	284	150
Peshko'	331	223
Romitan	498	384
Shofirkon	491	256
Qorako'l	452	241
Qorovulbozor	132	98
G'ijduvon	757	467

2022 yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Buxoro shahri (1059 ta), G'ijduvon (467 ta), hamda Romitan (384 ta), Buxoro (354 ta), Jondor (371 ta), tumanlarida tashkil etildi. Kogon, Jondor, Vobkent tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Qorovulbozor (98 ta) tumanida tashkil etilgan.

**2022 yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, foiz hisobida**




2022 yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Buxoro shahriga 24,0 foiz, G'ijduvon tumani 10,6 foiz, Romitan tumani 8,7 foiz, Buxoro tumani 8,0 foiz, Jondor tumani 8,4 foiz, Kogon tumani 8,8 foiz, Shofirkon tumani 5,8 foiz, Peshko' tumani 5,0 foiz, eng past ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 2,2 foizni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	<i>yanvar-dekabr 2021 yil</i>	<i>yanvar- dekabr 2022 yil</i>
<b>Jami</b>	<b>6418</b>	<b>4413</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	726	546
Sanoat	1136	652
Qurilish	407	260
Savdo	2434	1466
Tashish va saqlash	380	635


	<i>yanvar-dekabr 2021 yil</i>	<i>yanvar- dekabr 2022 yil</i>
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	534	289
Axborot va aloqa	102	72
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	154	100
Boshqa turdagi xizmatlar	545	393

**Yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (foiz hisobida)**




2023 yil 1 yanvar holatida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 35,8 birlikda, Buxoro shahrida 29,3 birlikda, Kogon tumanida 21,3 birlikda, Romitan tumanida 17,8 birlikda, Buxoro tumanida 13,4 birlikda va Peshko' tumanida 13,7 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 11,7-9,3 birlik oralig'ida Jondor, Kogon shahar, Shofirkon va Olot tumanlarida aniqlandi. Qorako'l tumanida 9,3 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

**2023 yil 1 yanvar holatida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni**  
(har 1000 aholiga, birlikda)



Agar, 2021 yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 14,0 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yil yanvar-dekabr oylarida bu ko'rsatkich 15,0 birlikka etdi va 2021 yilning shu davriga nisbatan 1,0 birlik yuqori.

**Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni**  
(har 1000 aholiga, birlikda;)



**2022 yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari tomonidan:**

-sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 9237,4 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 33,9 foizi) yoki 2021 yil yanvar-dekabrga nisbatan fizik hajm indeksi 102,4 foizni tashkil qildi;

- 33212,0 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) tashkil qilib, o'sish sur'ati 103,6 foizni (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari yalpi mahsulotining 97,4 foizi) tashkil qildi;

- 9498,8 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 44,9 foizi) o'zlashtirildi va 2021 yil yanvar-dekabrga nisbatan o'sish sur'ati 117,4 foizini tashkil qildi;

- 6766,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 81,1 foizi) bajarildi va 2021 yil yanvar-dekabrga nisbatan o'sish sur'ati 109,5 foizni tashkil qildi;

-avtomobil transporti yuk aylanmasining 102,2 foizni (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 76,0 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 101,7 foizni (umumiy yo'lovchi aylanmasining 98,0 foizi) tashkil qildi;

- 9664,4 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (jami xizmatlar hajmining 61,2 foizi) 2021 yil yanvar-dekabrga nisbatan o'sish sur'ati 107,6 foizini tashkil qildi;


-chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 85,2 foizi yoki 15497,7 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 105,9 foizni tashkil qildi) shakllantirildi.

- 166,4 mln.AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 53,6 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2021 yilning mos davriga nisbatan 45,6 mln.AQSH dollarga yoki 37,7 foizga ko‘paydi, mos ravishda 442,9 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 48,3 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi, bu esa 2021 yilning mos davriga nisbatan -55,2 mln.AQSH dollarga kamaydi.

**Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning  
asosiy ko‘rsatkichlari**

	<i>O‘lchov birligi</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>(+-)</i>
<b>Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni</b>	<b>birlik</b>	<b>27690</b>	<b>30082</b>	<b>2392</b>
<b>Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar</b>	<b>birlik</b>	<b>6418</b>	<b>4413</b>	<b>-2005</b>
YAHM	foiz	75,9	74,1	-1,8
Sanoat	foiz	38,7	33,9	-4,8
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	foiz	98,5	97,4	-1,1
Investitsiya	foiz	35,2	44,9	9,7
Qurilish	foiz	74,4	81,1	6,7
Savdo	foiz	88,9	85,2	3,7
Xizmatlar	foiz	65,9	61,2	-4,7
Yuk tashish	foiz	89,6	91,2	1,5
Yuk aylanmasi	foiz	79,7	76,0	-3,7
Yo‘lovchi tashish	foiz	96,7	97,0	0,3
Yo‘lovchi aylanmasi	foiz	97,7	98,0	0,3
Eksport	foiz	38,7	53,6	14,9
Import	foiz	57,3	48,3	-9,0

**2022 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida  
kichik tadbirkorlik ulushining tuzilishi**



**2022 yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi xususiy tadbirkorlikning (fuqarolar mulki) ulushi**

	<i>Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so'm</i>	<i>Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmida xususiy sektor ulushi, foizda</i>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	33212,0	100,0
Sanoat	9237,4	99,6
Qurilish	6766,0	52,3
Chakana savdo	15497,7	85,2




## Kichik tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi

(umumiy hajmiga nisbatan mlrd. so'mda)


Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Buxoro shahri (1578,2 mlrd.so'm), Kogon tumani (1523,3 mlrd.so'm), Jondor tumani (817,9 mlrd.so'm) va Buxoro tumani (782,1 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Vobkent (434,4 mlrd.so'm) va Olot tumanlarida (291,5 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.

### 2022 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Kogon (99,4 foiz), Buxoro (98,6 foiz), Jondor (87,5 foiz), Olot (80,6 foiz), Vobkent (79,2 foiz) va Shofirkon (74,2 foiz) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga Romitan (36,3 foiz) va Qorovulbozor (3,3 foiz) tumanlarida kichik tadbirkorlikning ulushi pastligi kuzatildi.

**2022 yil yanvar-dekabr holatiga jami sanoat mahsulotidagi  
kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, foiz**




Hududlar bo'yicha ko'proq qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi Jondor (4327,6 mlrd.so'm), G'ijduvon (3864,6 mlrd.so'm), Buxoro (3492,6 mlrd.so'm), Romitan (3274,1 mlrd.so'm) va Peshko' (3177,7 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Kogon (69,2 mlrd.so'm) va Buxoro shaharlarida (366,6 mlrd.so'm) va Qorovulbozor tumanida (956,1 mlrd.so'm) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi past bo'lib qolmoqda.

**2022 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Jondor (4327,6 mlrd.so'm), G'ijduvon (3864,6 mlrd.so'm), Buxoro (3492,6 mlrd.so'm) va Romitan (3274,1 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Qorovulbozor tumani (956,1 mlrd.so'm), Buxoro shahri (366,6 mlrd.so'm), va Kogon (69,2 mlrd.so'm) tumanida chakana tovar aylanmasi hajmi past bo'lib qolmoqda.

**2022 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**



Shahar va tumanlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Buxoro shahri (2368,4 mlrd.so'm), G'ijduvon (1635,5 mlrd.so'm), Jondor (677,4 mlrd.so'm), Buxoro (664,4 mlrd.so'm), Romitan (616,1 mlrd.so'm) va Peshko' (596,2 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

### 2022 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati



### 2022 yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning iqtisodiy tarmoqlardagi hududlar bo'yicha ulushi, foizda

	Sanoat	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Investitsiya	Qurilish	Chakana savdo	Xizmatlar
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>33,9</b>	<b>97,4</b>	<b>44,9</b>	<b>81,1</b>	<b>85,2</b>	<b>61,2</b>
Buxoro sh.	53,3	92,2	37,6	88,3	75,7	39,4
Kogon sh.	49,9	93,4	51,4	34,4	98,6	70,9
tumanlar						
Buxoro	98,6	99,6	91,6	92,6	99,6	79,6

	<i>Sanoat</i>	<i>Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi</i>	<i>Investitsiya</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Chakana savdo</i>	<i>Xizmatlar</i>
Vobkent	79,2	98,8	91,0	100,0	68,5	55,0
Jondor	87,5	97,5	81,8	100,0	98,8	81,1
Kogon	99,4	96,6	18,6	79,9	51,7	78,1
Olot	80,6	97,2	40,8	76,1	98,2	86,8
Peshko‘	61,9	99,4	94,7	100,0	73,2	68,4
Romitan	36,3	89,5	12,5	60,4	98,1	70,6
Shofirkon	74,2	99,5	73,9	93,5	99,0	77,5
Qorako‘l	47,6	97,6	49,3	95,5	99,0	78,0
Qorovulbozor	3,3	96,3	42,2	31,0	99,0	63,8
G‘ijduvon	39,3	99,6	80,2	99,8	88,9	81,5

Hududlar bo‘yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Kogon (99,4 foiz), Buxoro (98,6 foiz), Jondor (87,5 foiz), Olot (80,6 foiz), Vobkent (79,2 foiz), Shofirkon (74,2 foiz) tumanlarida tashkil etadi.


Investitsiyada eng yuqori ulushlarni Vobkent (91,0 foiz), Buxoro (91,6 foiz), G‘ijduvon (80,2 foiz), Peshko‘ (94,7 foiz) va Jondor (81,8 foiz) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda Vobkent (100,0 foiz), Peshko‘ (100,0 foiz), Jondor (100,0 foiz), G‘ijduvon (99,8 foiz), Qorako‘l (95,5 foiz) va Shofirkon tumanlari (93,5 foiz) tashkil etadi.

Chakana savdoda Qorako‘l (99,0 foiz), Jondor (98,8 foiz) Shofirkon (99,0 foiz) va Buxoro (99,6 foiz) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Olot (86,8 foiz), Jondor (81,1 foiz) va G‘ijduvon (81,5 foiz) tumanlari tashkil etadi.

**2022 yil yanvar-dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 yil IV-chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirmalar va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 1274 ta respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 51 foiz iqtisodiy vaziyatni qulay va 43,3 foiz esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida 42,1 foiz va 53,4 foiz, xizmatlar sohasida 36,9 foiz va 57,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 23,2 foiz va 72,3 foiz, sanoatda 36,9 foiz va 56,5 foizni tashkil qilganini ko'rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda 6,6 foiz, qurilishda 5,7 foiz, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida 4,5 foiz, xizmatlarda 5,4 foiz va savdoda 4,5 foizni tashkil qildi.


### Kichik tadbirkorlikda iqtisodiy vaziyatni baholash

2022 yil IV -chorak uchun, foizda



**Iqtisodiy vaziyat yaqin uch oyda** qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida yaxshilanish 34,8 foiz, oʻzgarishsiz 62,5 foiz, yomonlashish 2,7 foiz, sanoat korxonalarini yaxshilanishi 44,0 foiz, oʻzgarishsiz 51,2 foiz, yomonlashish 4,8 foiz, savdo yaxshilanish 47,9 foiz, oʻzgarishsiz 48,5 foiz, yomonlashish 3,6 foiz, xizmatlarda yaxshilanish 40,8 foiz, oʻzgarishsiz 54,3 foiz, yomonlashish 4,9 foiz va qurilish sohasida yaxshilanish 56,0 foiz oʻzgarishsiz 41,1 foiz, yomonlashish 2,9 foiz kutilmoqda.

**Kichik tadbirkorlik (biznes)da iqtisodiy vaziyatning o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, foizda**



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.